

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI EDUCATION/TA'LIM
KONSEPTLI BA'ZI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI

Narmuratov Zayniddin Radjabovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

+99891 581-14 -56

Annotatsiya. *Ushbu maqolada frazeologizmlarning shakllanishi, ularning lingvomadaniy xususiyatlariga oid tadqiqotlar nazariy jihatdan o'rganilib chiqilgan va ularga konseptual munosabat bildirilgan. Chog'ishtirilayotgan tillarda science/ilm konseptli frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari amaliy misollar bilan yoritilgan.*

Abstract. *This article analysis of theoretically studies the formation, etymology, semantic structure, translation problems, and research on their linguistic and cultural characteristics of phraseologisms and presents a conceptual approach to them. The specific features of phraseological units with the concept of science/ilm in the languages being compared are illustrated with practical examples.*

Kalit so'zlar: *frazeologizm, Science/ilm, ekvivalent, maqol, frazema.*

Keywords: *phraseology, Science, equivalent, proverb, phraseology.*

Mazkur maqola oldiga qo'yilgan asosiy maqsadlardan biri ingliz va o'zbek tillaridagi turg'un birikmalarning lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish deb belgilangan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har qanday qiyosiy-chog'ishtirma tahlil uchun tizimli qiyoslash mezonlarini ishlab chiqish zarur bo'ladi. Shuni inobatga olgan holda biz ingliz va o'zbek tillaridagi madaniy komponent, ayniqsa yaqqol ko'rinib turadigan, sezilib turadigan frazeologik birliklarni lug'atlardan va badiiy asarlardan terib olib, ularning semantik kategorizatsiyasini amalga oshirdik. Bunda eng ko'p uchraydigan semantik

guruhlar tanlab olindi va ular frazemalarni guruhlash uchun mezon qilib belgilandi. Mazkur kichik semantik guruhlar asosida ikki tilda **education/ta'lim** mazmuni asosida shakllangan frazemalar lingvomadaniy jihatdan tahlilga tortildi. Bular anchayin keng ma'noli guruhlar bo'lib chiqdi-ki, bu narsa tadqiqotning asosiy vazifasini bajaradi.

Misollarga murojaat qilsak, masalan ingliz tilidagi **educated guess**¹ idiomasi o'zbek tiliga o'ylab ko'rib javob bermoq ma'nosini anglatadi. Mazkur ingliz tilidagi ibora o'zbek tilidagi **yetti o'lchab bir kesmoq** frazeologik birligiga ekvivalent bo'ladi. Ingliz tilidagi *educated guess* iborasida bevosita ta'lim olmoq so'zi ishtirok etgan bo'lsa, o'zbek tilidagi *yetti o'lchab bir kesmoq* iborasida ta'lim leksemasi ishtirok etmagan. Bu o'rinda ikki til idiomasi tematik jihatidan tubdan farq qilib turibdi. Biroq ma'no-mazmuni bilan yuqorida keltirilgan ikki frazema ekvivalent hisoblanadi. Ingliz lingvomadaniyatida *educated* leksemasi *ilmli, tartibli, tarbiyali, ma'lumotli* kabi ma'nolarda kelib, bosiqlik bilan o'ylab ko'rib, shoshilmasdan ish tutish nazarda tutiladi. Ushbu fikrlarni quyida keltirilgan gapda ham isbotini kuzatish mumkin. Masalan, *class, we've studied cells all semester. Take an educated guess as to what the answer might be* (hurmatli talabalar semester davomida ushbu fanni o'qidingiz. O'ylab ko'rib keyin javob bering).

O'zbek lingvomadaniyatida esa xalqimizning qadimdan kishining aybini yuziga dangal aytmalik, istihola qilish o'zbekona odobning ajralmas qismi sanalgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, o'zbeklarda *yetti o'lchab bir kesmoq* kabi frazeologik birliklar yaratilgan. Mazkur iboraning mazmuni "biror kishi kimnidir nafsoniyatiga tegadigan gap aytsa, o'sha kishi mulohazali ekanligi bois unga munosib javob qaytarmaydi. Ammo mulohazasiz kishi yana o'shanday gap-so'zlarni qilaversa, unga kinoyali tarzda *Andishaning otini qo'rqoq qo'ymang* tarzida javob beriladi. O'zbek millatiga xos ibo, hayo, xushmuomalalik, yuzga tik qaramaslik, o'zaro munosabatlarda kattalar hurmatini joyiga qo'yish kabi fazilatlar doimo ustun turgani va "betgachoparlik" nojo'ya harakat, o'zbek odobiga zid bo'lgan holat ekani uchun xalqda shunday paremlar yaratilgan. Hozirgi o'zbek

¹ <https://idioms.thefreedictionary.com/educated+guess>
www.tadqiqotlar.uz

tilidagi *Yetti o'lchab, bir kes* proverbial frazeologizmida ham ana shu jihat ustunlik qiladi.

Ingliz tilidagi ***Better Educated than Wealthy*** iborasiga o'zbek tilidagi ***Bilim – davlatdan qimmat*** paremasi mos keladi. Qiyoslanayotgan tillar paremalarida qo'llanilgan leksik birliklarga e'tibor berilganda. Inglizcha idiomada ***educated*** [ta'lim] leksemasi qo'llanilganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Tadqiq qilinadigan ikkinchi til frazemasida esa ***bilim*** leksikasi foydalanilganligini kuzatishimiz mumkin. Bu o'rinda xalq o'zining lingvomadaniyatidan, til strukturasidan kelib chiqib so'z qo'llagan. ***Better Educated than Wealthy*** iborasida inson yoki jamiyatning bilim va ma'rifatga moliyaviy muvaffaqiyat yoki boylikdan ko'proq e'tibor berishi kerakligi nazarda tutilgan. Ingliz madaniyatida ta'lim va ma'rifatga katta ahamiyat beriladi. O'qimishli odam jamiyatda hurmatga sazovor bo'ladi va bilimli bo'lish yuksak fazilat sifatida qoraladi. ***Better Educated than Wealthy*** iborasi ham ana shu qadriyatni o'zida aks ettiradi.

Bu kabi iboralar juda ko'plab xalq madaniyatlarida o'xshash so'zlar yoki leksik birliklar mavjud. Masalan, xitoy xalqida 受過良好教育勝過富有 ilm boylikdan afzal mazmunini anglatuvchi, olmon xalqida *Besser gebildet als reich* ilmning yuksak ekanligi haqida frazeologik birliklar uchraydi. Bu esa dunyo xalqlarining lingvomadaniyatidagi o'xshash tomonlarini eslatib turadi. O'zbek tilshunosligida ***Bilim – davlatdan qimmat*** idiomasi, ilm va bilimning moddiy boylik yoki davlat (mulk, boylik) dan yuqori va qimmatroq ekanligini ifodalaydi. Bu ibora madaniy va ma'naviy nuqtayi nazardan katta ahamiyatga ega bo'lib, insonlar uchun bilim va ta'limning eng oliy qadriyat ekanligini bildiradi. Ushbu iborani lingvomadaniy tahlil qilish orqali, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish mumkin. Maqolsimon iborada qo'llanilgan ***davlat*** so'zi bu yerda moddiy boylik, mulk ma'nosida kelmoqda. O'zbek madaniyatida bilimning qadr-qimmat, ilm va bilimga katta ahamiyat beriladi. Ushbu parema ilm-fan va ta'limning davlat (mulk, boylik)dan ustun qo'yilganligini bildiradi. Bu frazema milliy qadriyatlar, ta'lim va ma'rifatparvarlikni ifodalaydi. O'zbek xalqining tarixiy an'analari, ma'rifatparvarlik harakatlari va bu iboraning madaniy ahamiyatini yanada

kuchaytiradi. O'zbek xalq paremlarida ham bu kabi mazmunli iboralar ko'p uchraydi, masalan, ***Ilm – davlat, amal – saodat*** kabi. Ushbu ibora, tarixiy jihatdan ma'rifatparvarlik harakatlari va ilm-fan rivojlanishi bilan bog'liqdir. O'rta Osiyo va Sharq madaniyatida ilm-fan va bilim doimo yuqori qadrlangan, va bu ibora ham ana shu qadriyatlarni aks ettiradi. Turkman xalqida ***Bilim tükeniksiz baylykdyr*** ilmni har narsadan ustunligi, *tojik xalqida* ***Донии сарвати беноён аст*** bilimning cheksiz qudrati borasida frazeologik birliklar uchraydi. Shu qatorida, turkiy tillar, jumladan o'zbek tilida ilm va bilimning qadriyat sifatida yuqori o'rinni egallashi bilan bog'liq ko'plab iboralar mavjud. Masalan, ***Ilm inson uchun eng buyuk boylikdir, Bilim chirog'i yoqilsa, zulmat ketadi yoki Boylik, boylik emas, bilim boylik, Bilim – eng katta boylik, Ilm boylikdan afzal, Ilm – tunganmas boylik, Bilimni oltin bilan solishtirib bo'lmaydi*** kabi iboralar ham mavjud.

Ikki tilda chog'ishtirilayotgan frazeologik birliklar ma'no va mazmuni bilan o'xshash hamda ingliz va o'zbek xalqlari orasida qo'llanish, lingvomadaniy jihatdan farq qilmasligi tahlil natijasida aniqlandi. Ikki etnos idiomasida ham ilm va bilimning moddiy boylikdan yuqori ekanligi aks ettirilgan. Ushbu ibora jamiyatda ta'lim va ma'rifatning ahamiyatini kuchaytiradi, hamda bilimning inson hayotidagi muhim rolini yuksak qadriyat sifatida ta'kidlaydi. Ushbu iboralar orqali o'qimishlilik, bilim olish va ma'naviy boylikning moddiy boylikdan ustun ekanligi ta'kidlanadi.

An educated person is respected everywhere iborasi "ilmli inson har joyda hurmatli bo'lar" ma'nosini bildiradi. Bu frazemaga o'zbek tilida ***Ilmli odam – ilikli suyak*** frazeologik birligi ekvivalent bo'ladi. Inglizcha paremadagi *education* so'zi o'zbek tilida *ta'lim* so'zi orqali izohlanadi. O'zbek tilidagi variantida esa *ilm* so'zi keltirilgan. O'zbekcha variantida *ta'lim* so'zi ishlatilmadi. Ingliz frazemadagi *educated person* so'z birikmasi o'zbek tilida *ilmli odam* so'z birikmasi orqali izohlanishi mumkin. Frazeologik birlikning mazmuniga to'xtalsak, ingliz xalqining ushbu ***An educated person is respected everywhere*** frazemasida ilmli inson hamma joyda qadrli bo'lishi ta'kidlangan.

Har bir frazeologik birlik etnosning madaniyatini o'zida jamlagan bo'ladi.

Mazkur jadvalda berilgan paremalarda ham xalqning qadriyatlarini o'zida aks ettiruvchi paremlar jamlangan.

Qiyos qilinayotgan frazeologik birliklarning har biri ma'lum darajada xalqning qadriyatlarini, madaniyatini, odat-marosimlarini o'zida aks ettirishi bilan birga, etnosning o'tmishini va kelajagini anglatadi. Ikki tildagi tahlilga tortilgan paremlar tematik va mantiqiy shakllanishi bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Ingliz tilidagi paremlar **education** leksemasi asosida shakllangan bo'lsa, qiyos olinayotgan ikkinchi tilda **bilim, ilm, o'qituvchi** kabi leksikalar yordamida shakllangan. Bu esa tilning tuzilishidagi tafovutini anglatga, ularda anglashilgan madaniy farqlar esa lingvomadaniy tomonidan farqli ekanligini ko'rsatib turibdi. Ingliz xalq paremlarida ta'limni inson hayoti va uning kelajagi uchun muhim jarayon ekanligi zikr etilgan bo'lsa, o'zbek tilidagi til birliklarida ilm va bilimning kuch-qudrati, uning inson uchun muhim jihatlari yoritilganligi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Apperson G.L. English proverbs and proverbial phrases. A historical dictionary. – London: Dent, 1929. – 729 p.
2. Cambridge Advanced Learner's Dictionary 4th Edition by Colin McIntosh. 2013. – 1856 p.; Collis H. American English Idioms. Mc Graw Hill Education; second edition, 2007. – 1128 p.
3. Cowie A.R., Mackin R. Oxford Dictionary of Current Idiomatic English. — Vol. 2. Phrase, Clause and Sentence Idioms. – Oxford University Press, 1983. – 1876 p.
4. Ernest Miller Hemingway. The old man and the sea. United States, 1952. – 127 p. Mark Twain. The complete short stories. BantamClassic reissue edition/ NewYork, 2005.– 737 p.
5. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. Roman, mas'ul muharrir A.Samad. Toshkent, Meriyus, 2015. – 548 b.
6. Macmillan English dictionary for advanced learners second edition. – London: Macmillan Publisher, 2007. – 1748 p.

7. Абдурахимов М. Қисқача ўзбекча-русча фразеологик луғат. - Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 184 б.
8. Нармуратов З.Р. Қисқача икки тилли илм-маърифат паремиологик луғат. – Тошкент: ADAST POLIGRAF, 2020. – 84 б.
9. Нармуратов З.Р., Сафармуратова М. Таълим, илм ҳикматлари. – Термиз: Термиз давлат университети, НММ нашриёти, 2022. – 89 б.
10. Раҳматулаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 408 б.
11. Ўзбек халқ мақоллари: [2томлик]. Масъул муҳаррирлар: Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Том 2. – Тошкент: «Фан», 1988. – 372 б.